

## PAHLAVON MAHMUD TARIXIY OBRAZI OMON MATJON BADIY TALQINIDA

**Saida MATNAZAROVA,**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

[matnazarovasaida994@gmail.com](mailto:matnazarovasaida994@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677317>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Omon Matjonning “Pahlavon Mahmud” dramatik dostoni tahlil etib berildi. Shuningdek, maqolada shoirning tarixiy shaxs obrazi hamda tarixiy doston yaratishdagi badiiy mahorati tadqiq etildi.

**Kalit soʻzlar:** Tarixiy doston, Omon Matjon, Pahlavon Mahmud, konflikt, tarixiy fon, shevaga oid soʻzlar, istorizm va arxaizmlar.

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ драматического эпоса Омон Матджона «Пахлаван Махмуд». Кроме того, в статье исследуются образ исторической личности поэта, а также художественное мастерство в создании исторического эпоса.

**Ключевые слова:** Исторический эпос, Омон Матджон, Пахлаван Махмуд, конфликт, исторический фон, слова, относящиеся к диалекту, историзмы и архаизмы.

**Annotation.** This article analyzes Omon Matjon's dramatic epic “Pahlavon Mahmud.” It also explores the poet's portrayal of historical figures and his artistic mastery in creating a historical epic.

**Keywords:** Historical epic, Omon Matjon, Pahlavon Mahmud, conflict, historical context, dialectal words, historicism, and archaisms.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotida doston janri mumtoz va folklor adabiyotida shakllangan hamda jahon adabiyotining yetakchi janrlaridan boʻlgan poemaning oʻziga xos mazmuniy, shakliy jihatlarini singdirib rivojlandi. Xususan, oʻzbek adabiyotida doston janrining goʻzal namunalarini U.Nosir, H.Olimjon, Oybek, G.Gʻulom, Mirtemir, E.Vohidov, A.Oripov, I.Otamurod kabi koʻplab shoirlar yaratishdi. Shular qatorida Oʻzbekiston xalq shoiri Omon Matjon ham oʻzining bir qator dostonlari bilan bu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshdi. Shoirning “Pahlavon Mahmud” (1972-75), “Haqqush qichqirigʻi” (1979), “Ming bir yogʻdu” (1989) kabi tarixiy, afsonaviy, maʼrifiy dostonlari adabiy jarayonda katta bahslarga sabab boʻldi.

Oʻzbek zamonaviy dostonchiligi yirik adabiyotshunos olimlar N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, D.Quvvatova, yosh tadqiqotchilardan biri D.Bahriddinova tomonidan monografik tarzda ishlandi. Shu jumladan, Omon Matjon dostonlari U.Normatov, N.Rahimjonov, J.Jumaboeva, D.Quvvatova, Oʻ.Panaeva, M.Qoʻchqorova, M.Otajonova, Sh.Ahmedovalar tomonidan oʻrganildi.

Adabiyotshunos D.Quvvatova zamonaviy o‘zbek dostonlarini quyidagicha tasniflab o‘rganadi:

1. Dostonda voqelikni ifodalash usuliga ko‘ra: lirik, liro-epik, dramatik dostonlar.
2. Qaysi davr voqeligiga bag‘ishlanganiga ko‘ra: tarixiy va zamonaviy dostonlar.
3. Uslubiy izlanish yo‘nalishiga ko‘ra: a) folklordagi doston, ertak, afsona, rivoyat kabi epik janrlar shakli, syujet va ifoda uslubi asosida yaratilgan stilizatsion dostonlar; b) Mumtoz dostonchilikka xos aruz vaznida, masnaviy shaklida, qasida mazmunida, maktublar usulida yozilgan masnaviy dostonlar, tasavvufiy ruhdagi dostonlar, ma‘rifiy-didaktik dostonlar; v) jahon modernistik adabiyoti an‘analari ta‘sirida yaratilgan modern izlanishdagi dostonlar” [1.14].

Olimaning ana shu tasnifi bo‘yicha Omon Matjon dostonlariga nazar tashlansa, shoirning davr voqeligini ifodalash usuliga ko‘ra lirik dostonlari turiga “Nega men?”, “Ming bir yog‘du”; liro-epik dostonlarga “Haqqush qichqirig‘i”, “Qush yo‘li”; dramatik dostoniga “Pahlavon Mahmud” kiritish mumkin. Bundan tashqari, mazmuniy jihatdan tarixiy doston turiga “Pahlavon Mahmud”, zamonaviy doston turiga “Nega men?” asarini kiritish mumkin. Shuningdek, O.Matjonning “Ming bir yog‘du”, “Qush yo‘li” asarlari mumtoz dostonchilik shaklida yozilgan. Shular orasida “Ming bir yog‘du”, “Qush yo‘li” dostonlari ma‘rifiy-didaktik mazmunda yaratilgan.

Omon Matjonning “Haqqush qichqirig‘i” dostoni ertak, rivoyat kabi folklor syujeti va uslubida yozilgan stilizatsion asardir. Bizningcha, shoirning “Qovun urushi” asarini zamonaviy doston turining satirik turiga kiritish mumkin.

Mazkur maqolada O.Matjonning “Pahlavon Mahmud” dramatik dostonini tahlil etamiz. Bu dramatik dostonda Ayozi, Bibixonim, Pahlavon Mahmud, Taka ota, Sotim, Roy, A‘yon, Bangi devona, Durjon, Shayx, Dorug‘a, po‘stindo‘zlar, g‘ariblar, hind pahlavoni, xizmatkor, navkarlar, zodagon kishi kabi jami 20 ga yaqin obrazlar yaratilgan. Doston badiiy kompozitsiyaga diqqat qaratilsa, jami o‘n ikkita holotdan iborat. Shoir har bir sahna yoki lavhani “holot” deb bergan.

Dostonning bosh qahramoni Xorazmning faxri, xivalik shoir, kuragi yerga tegmagan polvon, po‘stindo‘z, javonmardlik oqimining yirik vakillaridan biri Pahlavon Mahmud Puryorvaliydir.

Dostonda Pahlavon Mahmudning sevgilisi Bibixonim bilan ishqiy munosabatlari, uning Hindistondagi kurashi, Hind shohi Roy huzuridagi voqealar, uni ko‘ra olmaydigan Ayozi va Sotimlarning g‘arazli maqsadlari she‘riy uslubda bayon etilgan. Aynan Pahlavon Mahmud va Sotim, Avazlarning kuchli konflikti dostonga dramatik pafos bergan. Ayniqsa, poyloqchi, gap tashuvchi, munofiq Sotim obrazi Pahlavon

Mahmud bilan Bibixonimning akasi Ayozi o'rtasida kuchli qarama-qarshilikni kuchaytirgan katalizator obraz hisoblanadi.

Tarixiy dostonlar markazida odatda tarixiy shaxs yoki biror bir tarixiy voqea asos bo'ladi. Shu janriy kriteriyaga ko'ra dostonda Pahlavon Mahmud tarixiy va adabiy shaxsning hayoti va qismati, ayniqsa, uning shoirlik va pahlavonlik fazilatlarini xarakterlar konfliktiga asoslangan holda teran badiiy talqin etilgan. Shoir o'zi ham, doston qahramoni Pahlavon Mahmud ham xorazm farzandalari bo'lgani uchun dostonning badiiy tilida xorazm shevasiga xos xarakterli leksik qatlam hamda tarixiy davr koloritini jonli va ishonarli ochish maqsadida arxaizmlar va istorizmlardan mahorat bilan foydalanilgan. Buni quyidagi jadvalda beramiz.

1-jadval. Doston matnida uchraydigan Xorazm shevasiga oid so'zlar

<i>Doston matnida uchraydigan so'zlari</i>	<i>matnida sheva</i>	<i>Shu so'zlar ishtirok etgan she'riy parchalarga misollar</i>
O'kcha – tovon ma'nosida		Xohlasang, ezg' ilaysiz <b>o'kcha</b> ga olib! Bor bo'lsin Hoqonning tanti avlodi (B. 96.)
Ina – mana ma'nosida		Uv, <b>ina</b> yorliq! (B. 97.)
Og'a – aka ma'nosida		To'xta, Bibi nechun bunda? Va tanho? <b>Og'asi</b> bilsami, yarlaqo Xudo... (B. 99)
Ko'na – eski ma'nosida		Burun, <b>ko'na</b> o'roq, uzun, qirrador – Yonidan o'tganu uyur och tulpor. (B. 100.)
Tengamik – tengdosh ma'nosida		Pahlavonga enid <b>tengamik</b> yo'qdir, Bunisinda lekin da'vo ulug'dur. (B. 100.)
Biyi – kelinoyi ma'nosida		Emish, Gulli <b>biyi</b> qabristonida Saf-saf qabrlarning yurib yonida.. (B. 113.)
G'o'j – mard yigit ma'nosida		Nahot Xorazmning <b>g'o'j</b> o'g'lonlari Yelkada ne xil yuk sezmay jonlari (B. 121.)
Dag'riq – boshi berk tor ko'cha ma'nosida		Bilmagan ko'cha yo'q, bilmagan <b>dag'riq</b>
Qirchin – o'lib ketmoq ma'nosida		Xuddi shunday! <b>Qirchin</b> ketayin... (B. 164.)

Omon Matjon “Pahlavon Mahmud” dramatik dostoni matnida Xorazm shevasiga xos so'zlardan unumli foydalanib, asarning xalqchilligi, tarixiyligi, voqealar sodir bo'lgan badiiy xronotop manzarasini to'laqonli ochib berishga erishgan. Doston matnida uchraydigan **o'kcha**, **ina**, **og'a**, **ko'na**, **tengamik**, **biyi**, **g'o'j**, **dag'riq**, **qirchin** Xorazm milliy koloritini yorqin ifodalovchi so'zlar asarning badiiy-uslubiy bo'yoqdorligi, jonliligi, xalqchilligi, realizmi, tarixiyligini ta'minlagan.

2-jadval. Doston matnida uchraydigan arxaizm va istorizmlarga misol.

<i>Doston matnida</i>	<i>Shu so'zlar ishtirok etgan she'riy parchalarga misollar</i>
-----------------------	--

<i>uchraydigan istorizm va arxaizmlar</i>	
Rub'i maskun – to'rttdan bir chorak	Mahmud hali bormiz <b>rub'i maskunda!</b> (B. 94.)
Dorug'a – hokim	Buyuk <b>dorug'</b> amiz tez kunda shoyon (B. 96.)
Hevoq – xiva shahrining eski nomi	Olomon tajang deng. <b>Xevoq</b> jununda! (B. 100.)
Ruhafzo – jonlatiruvchi, tiriltiruvchi	Haqdan tilaymanku <b>ruhafzo</b> saslar! (B. 105.)
Omoch – yer haydash uchun ishlatilgan arxaik so'z	<i><b>Omochga tang'ilib, o'zlikdan arib, Yerga qaragancha keturmilar bot..</b></i> (B. 121.)

Ikki katta lug'atshunos olimlar E.Fozilov hamda B.Yusufning Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlarida jadvalda berilgan so'zlar izohini izladik. “Navoiy tili lug'ati”da “Dorug'a – shahar tartibini nazorat qiluvchi boshliq, hokim” ma'nosi izohlangan.[2.473] “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”da “Ruhafzo – ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi, tiriltiruvchi” ma'nosini bildirishini izohlari bilan misollari berilgan. [3.638] Shuningdek, lug'atda “Rub'i – to'rttdan bir chorak” ma'nosi izohlangan.[4.633]. Yana lug'atda “Arsh – osmonning eng baland qavati” degan ma'noni bildirad [5.102].

Omon Matjon Pahlavon Mahmud yashagan davr, uzoq o'tmish hamda fors tili ta'sirida bo'lgan adabiy, ijtimoiy va maishiy muhitni jonli ifodalash maqsadida istorizm va arxaizmga aylangan, yoki arabcha va forsha klassik so'zlardan doston matnida mahorat bilan foydalangan.

Bundan tashqari, shoir Omon Matjon Pahlavon Mahmudning ruboiylarini doston matniga singdirib yuborgan. Bu adabiyotshunoslikda “intertekstuallik” hodisasi deyiladi. Ijodkor Pahlavon Mahmud ruboiylarini qahramon tilidan aytirish orqali uning ruhiy dunyosini, javonmardlik fazilatini badiiy asoslab kiritadi.

Masalan: **Pahlavon Mahmud ruboiysi:**

Ulug'lik istasang, bo'l el gadosi,  
O'zingni unutu bo'l el oshnosi.  
El toj kabi boshga ko'tarsin desang,  
El qo'lin tutginu bo'l xokiposi [6.22].

Faylasuf ruboiynavis shoirning yuqoridagi ruboyisini Omon Matjon “Pahlavon Mahmud” dostonining “Oltinchi holoti”da Shayx bilan suhbatida chog'ida Pahlavon Mahmud tilidan so'ylatadi

Davronda ko'p ko'zni men giryon ko'rdim,  
Neki balo bo'lsa, beomon ko'rdim.

Nuh-ki ming yil yashab ko'rdi bir to'fon,

Men Nuh bo'lmasam ham ming to'fon ko'rdim. [7.154]"

Pahlavon Mahmudning hayotida sodir bo'lgan qarama-qarshiliklar tashqi va ichki ruhiy ziddiyatlar ushbu ruboiysida teran aks ettirilgan. Shoir Omon Matjon Pahlavon Mahmud ruboiylarining qat-qatiga singdirib yuborilgan badiiy falsafani uning hayotini aks ettirishga bag'ishlangan doston syujetini rivojlantirish hamda shoir shaxsiyati va ruhoniyyatini yorqin badiiy ifodalash uchun doston matniga singdirib yuborgan. Bundan tashqari, doston matnida Xorazm xalq og'ziki ijodining mashhur laparlaridan biri “Dod alimdan ketdi ro'mol” ham dostonning “O'n birinchi holoti”da ramziy ma'noda Pahlavon Mahmudning Bibixonimdan ayrilishiga ishora etadi.

Ro'molim tushdi alimdan,

Quvvatim ketdi belimdan,

Dod etarman, dod, o'limdan,

Dod, alimdan ketdi ro'mol...

Umuman olganda, “Pahlavon Mahmud” dostoni o'zbek adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yaratishning o'ziga xos namunasi sifatida ahamiyatlidir. Asarda til birliklari, tarixiy leksika, intertekstual unsurlar hamda folklor motivlari bir butun poetik tizimni tashkil etadi. Shoirning badiiy mahorati, ayniqsa, til va uslub borasidagi izlanishlari dostonning estetik qimmatini oshirgan. Shu jihatdan, Omon Matjonning mazkur dostoni nafaqat badiiy asar, balki o'zbek mumtoz adabiyoti, xalq og'ziki ijodi va tarixiy tafakkur an'alarini o'zida mujassam etgan muhim adabiy manba sifatida ham katta ilmiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari. – Buxoro: Bukhara hamd print, 2024. – B. 14.
2. Yusuf B. Navoiy tili lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 473.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 638.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 633.
5. Yusuf B. Navoiy tili lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 473
6. Pahlavon Mahmud ruboiylar. Berdim qalamimga so'z. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 360 b.
7. Matjon O. Pahlavon Mahmud / Erkin havolarda. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – B. 90-174.